



“Tasdiqlayman”
Maktabgacha ta’lim
vaziri o‘rinbosari,
Xarid komissiyasi raisi
N.Muslitdinov

“ ” _____ 2022-y.

Mobil guruhlari sifatida faoliyat ko‘rsatadigan avtobuslarni va o‘yin
maydonchalarini jihozlash ishlari bo‘yicha elektron shaklda
xarid savdolarini o‘tkazish to‘g‘risida
Tender xujjati

Buyurtmachi: Maktabgacha ta’lim vazirligi

Toshkent – 2022-y.

MUNDARIJA

- 1. Tender ishtirokchisi uchun yo‘riqnoma.**
- 2. Tender hujjatlarining texnik qismi.**
- 3. Tender hujjatlarining narx qismi.**
- 4. Shartnoma loyihasi.**

I. TENDER ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA

- 1 Umumiy qoidalar.**
- 1.1 Tender bo‘yicha mazkur xarid qilish hujjatlari (keyingi o‘rinlarda — tender hujjatlari) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (keyingi o‘rinlarda – qaror) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.2 Tender predmeti: Mobil guruhlarida faoliyat ko‘rsatadigan avtobuslarni va o‘yin maydonchalarini jihozlash ishlari bo‘yicha elektron shaklda xarid savdolarini o‘tkazish to‘g‘risida Tender xujjati.
Jihozlash ishlari – jihozlar xarid qilish, o‘rnatish, montaj qilish va boshqa xizmatlarni amalga oshirish. (foydalanish uchun tayyor holatga keltirish).
- 1.3 Tender o‘tkazish (loyihani amalga oshirish) uchun asos: Maktabgacha ta‘lim vazirining 2022-yil 25-iyundagi 148-son buyrug‘i.
- 1.4 Tenderning boshlang‘ich narxi: jihozlar xarid qilish, o‘rnatish, montaj qilish va boshqa xizmatlari bilan birga **3 976 613 648,0 so‘m QQS bilan:**
Tender taklifida ko‘rsatilgan narxlar boshlang‘ich narxdan oshmasligi kerak.
- 1.5 Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a‘zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o‘tkazilishi mumkin.
Xarid komissiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.
- 1.6 Ushbu tender hujjatlarida foydalaniladigan asosiy tushunchalar:
avans to‘lovi — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, operatorning vositachilik yig‘imini va tomonlarning zakalatini o‘z ichiga olgan moliyaviy mablag‘lar summasi;
taklifni ta‘minlash — buyurtmachining talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta‘minlanishi;

davlat xaridlari elektron tizimining operatori (keyingi o‘rinlarda — operator) — davlat xaridlarining subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxsdir;

shaxsiy kabinet — elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta‘minlaydigan, buyurtmachi yoki xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining maxsus axborot portaldagi individual sahifasi;

hisob-kitob-kliring palatasi (bundan buyon matnda HKKP deb yuritiladi) — avans to‘lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo‘li bilan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron xaridlarga kirishini ta‘minlovchi Operatorning tarkibiy bo‘linmasi;

davlat xaridlarining elektron tizimi (bundan buyon matnda elektron tizim deb yuritiladi) — elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari subyektlarining hamkorligini, elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillari o‘tkazilishini ta‘minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;

elektron davlat xaridlari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.

2 Elektron tender tashkilotchilari

2.1 Tender buyurtmachisi: Maktabgacha ta‘lim vazirligi (keyingi o‘rinlarda – “Buyurtmachi”).

2.2 Buyurtmachining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxs:

Maktabgacha ta‘lim vazirligining Xaridlarni tashkil etish boshqarmasi bosh mutaxassisi Mamanazarov Jaxongir Norbo‘tayevich:

Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi 17-uy, tel: (+99891 010-71-77).

2.3 Shartnoma egasi: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi.

2.4 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta‘lim tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori bilan tasdiqlangan xarid komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – tender komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.

3 Elektron tender ishtirokchilari

3.1 Elektron tender ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) elektron tenderda davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

3.2 Ishtirokchi:

- davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;
- buyurtmachiga yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni o'tkazish talablari va shartlari bo'yicha so'rovlar berish hamda ulardan tushuntirishlar olish;
- davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;
- qonunchilikka muvofiq takliflarga o'zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.
- 3.3 Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;
- xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo'lishi;
- asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi;
- g'olib deb topilgan taqdirda, Buyurtmachi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.
- 3.4 Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan ishtirokchi davlat xaridlari ishtirokchisi bo'la olmaydi.
- 3.5 Ishtirokchi davlat xaridi ijrochisi (g'olib) deb e'tirof etilgan taqdirda:
- tender savdolari yakunlari bo'yicha g'olib deb rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki kun mobaynida davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 25 foiz yoki undan ko'p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo'lgan o'zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to'g'risidagi axborotlarni oshkor qilishlari; o'zlarining veb-saytlarida va maxsus axborot portalida doimiy asosda tender savdolari yakunlari bo'yicha imzolangan shartnoma majburiyatlari bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni joylashtirib borishga majbur.
- 4 **Elektron tenderga kiritish**
- 4.1 Ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisob varaqlariga avans to'lovlarini kiritganlaridan so'ng elektron tenderga qo'yiladi.
- 4.2 Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron xaridlardagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan (bundan buyon matnda ERI deb yuritiladi) foydalangan holda amalga oshiradi. Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish, elektron tizimda tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo'lib hisoblanadi.
- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari davlat xaridlari elektron tizimida ro'yxatdan o'tishni va tijorat takliflarini yuborishni elektron raqamli imzo kalitsiz shaxsiy kabinet orqali amalga oshirish;
 - elektron davlat xaridlarida qatnashish uchun to'lanadigan avans to'lovlar orqali O'zbekiston Respublikasining

		norezidenti bo'lgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini identifikatsiya qilish.
	4.3	Operatorning elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi: kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo'yicha elektron xaridlardan foydalanish; elektron xaridlarni o'tkazish; elektron xaridlar natijasi bo'yicha ishtirokchilarni aniqlash; bitimni ro'yxatga olish va shartnomani shakllantirish.
	4.4	Ishtirokchilarni xaridga kiritish ular tomonidan portaldagi so'rovnoma-arizani to'ldirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ishtirokchilarni xaridga kiritish, ularning quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lganda amalga oshiriladi: shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi; soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi; o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi; Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi. Soliq organlari tomonidan berilgan ERI mavjudligi ishtirokchini shartnoma tuzish huquqini belgilaydi. Ishtirokchi so'rovnoma-arizada unga nisbatan qo'llanilgan bankrotlik tartib-taomillari mavjud emasligi hamda soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi haqida ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Ishtirokchi tomonidan so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng, portal tomonidan Insofsiz ijrochilarning yagona reestri ma'lumotlarini unda ishtirokchi haqida yozuv mavjud emaslik. Tender e'lon qilingunga qadar ta'sis etilganiga 6 oydan kam bo'lmaganligi holatlari tekshiriladi. Ishtirokchi tomonidan taklif qilinayotgan mahsulotning namunalarini o'z vaqtida taqdim qilinganligi (<i>tender Ishtirokchisi tomonidan tender taklifiga mos bo'lgan Mahsulot namunasi topshirilganligini tasdiqlaydigan hujjatning asl nus'hasi asos bo'lib hisoblanadi</i>) tekshiriladi. Operator: buyurtmachilar va ishtirokchilarga HKKPda alohida shaxsiy hisobraqamlar ochadi; buyurtmachilar va ishtirokchilarga shaxsiy kabinetlar tashkil etadi.
Tenderda ishtirok etish va taklif ta'minotini taqdim etish tartibi	5.1	Taklifning ta'minot usuli, shu jumladan tender ishtirokchisining kelishilgan muddat davrida o'z taklifini qaytarib olmasligiga kafolat beruvchi 1 % pul zakalatini kiritish va qaytarib olish tartibi hamda miqdori elektron davlat xaridlari tartib-taomillarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi. <i>*Ishtirokchi savdolarini o'tkazish vaqtida qatnashishdan bosh tortgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Buyurmachi tomonidan operatorga taqdim etilgan ma'lumotga asosan, zakalat summasi buyurtmachining hisob raqamiga operator tomonidan yuboriladi.</i>

- 5.2 Elektron tenderda ishtirok etish uchun ishtirokchi:
- <https://id.uzex.uz/> saytida ro'yxatdan o'tadi va ro'yxatdan o'tish sahifasida kerakli bo'limlarni (mijoz turi, shaxsiy ma'lumotlari, aloqa ma'lumotlari) to'ldiradi. "Yakka tartibdagi tadbirkor" va "Rezident" tizimda faqatgina elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro'yxatdan o'tishi mumkin bo'ladi;
 - ro'yxatdan o'tish jarayoni tugagandan so'ng, HKKPda ishtirokchi uchun shaxsiy hisobvaraqa ochiladi. Ishtirokchilar ularning HKKPdagi hisob raqamlarida avans to'lovining yetarli miqdori mavjud bo'lgan taqdirdagina elektron davlat xaridlarida ishtirok etadilar;
 - tender shartlari bilan batafsil tanishgandan so'ng ishtirokchi elektron tenderda ishtirok etish uchun ariza beradi va "Umumiy ma'lumot" sahifasida, "Mahsulotlar va buyumlar", "Talablar" bo'limlarida zarur ma'lumotlarni to'ldiradi.
- Talablar bo'limida ma'lumot kiritish jarayonida ishtirokchidan biror bir talab bo'yicha tasdiqlovchi hujjat so'ralgan bo'lsa, hujjatni fayl ko'rinishida yuklash zarur.
- 5.3 Elektron tender:
- byudjet buyurtmachisi tomonidan o'tkazilganda ishtirokchilarning zakalati byudjet buyurtmachisining xisob varag'iga o'tkaziladi va g'olib aniqlangunga qadar buyurtmachining depozitida saqlanadi.
- Operator tomonidan g'olib aniqlangunga qadar xatlab qo'yiladi. Elektron tender g'olibining zakalati shartnoma tuzilguniga qadar xatlanadi;
- G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Buyurtmachi tomonidan operatorga taqdim etilgan ma'lumotga asosan, zakalat summasi buyurtmachining hisob raqamiga operator tomonidan yuboriladi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zahiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib, g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, Buyurtmachi yangi tender o'tkazadi.
- 5.4 Buyurtmachi taklifni ta'minlash summasi to'lanishini talab qilmaydi va ta'minlash to'g'risidagi hujjatni bir ish kuni davomida qaytaradi yoki quyidagi voqealardan biri yuz berganidan keyin uning qaytarilishini ta'minlaydi:
- taklifni ta'minlashning amal qilish muddati tugashi;
 - shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi, agar bunday ta'minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;
 - davlat xaridlarining bekor qilinishi;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi.

5.5 Operator elektron tender natijasida shartnoma tuzilganidan soʻng, bir ish kuni davomida zakalatni banddan yechadi va uni ijrochining tegishli shaxsiy hisob raqamiga qaytaradi.

Portal, elektron tenderning yakunlariga koʻra, bitimning haqiqiy summasidan operatorning vositachilik yigʻimini ishtirokchining avans toʻlovlardan ushlab qoladi. Ishtirokchilarning bandi bekor qilingan pul mablagʻlari, ularning topshiriqlariga asosan boshqa elektron davlat xaridlarida avans toʻlovlari sifatida foydalanilishi mumkin yoki xizmat koʻrsatadigan banklardagi ularning hisob raqamlariga qaytariladi.

6 Tender takliflarini baholash tartibi

Elektron tender xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda oʻtkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni koʻrish imkoniyatini beradi.

Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tender taklifida koʻrsatilgan maʼlumotlariga mos boʻlishi hamda elektron tizimdagi elektron maydonlar toʻldirilishi kerak.

Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlangʻich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning toʻldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlangʻich narxdan yuqori boʻlsa, shuningdek, toʻldirilmagan maydonlar mavjud boʻlsa yoki biriktirilgan fayllar toʻliq boʻlmasa, elektron tizim rad etish sababini koʻrsatgan holda ishtirokchining tender taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi maʼlumotlarni ishtirokchining tender taklifida koʻrsatilgan maʼlumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining topshirigʻiga asosan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

6.1 Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

tender taklifining tender hujjatlarida koʻrsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;
ishtirokchining malaka talablarga (tender hujjatlarida nazarda tutilgan boʻlsa) muvofiqligini baholash;
tender taklifining texnik qismidagi hujjatlari xamda topshirilgan naʼmunalar tasdiqlangan mezonlar asosida baholanadi;

tender taklifining narx qismini baholash.

Bunda elektron tizim tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud boʻlgan maʼlumotlarni tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan soʻng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini taʼminlaydi.

6.2 Elektron tender ishtirokchilari tomonidan tuzilgan hujjatlar roʻyxati ushbu yoʻriqnomaning 1-ilovasi (№ 1, 2, 3, 4, 5-shakllar)da keltirilgan.

- 6.3 Tender takliflarini baholash va tender g'olibini aniqlash tender hujjatlari (2-ilova)da belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va uslublar asosida amalga oshiriladi.
- 6.4 Ishtirokchi quyidagi hollarda tenderda ishtirok etishdan chetlashtiriladi:
- u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd mavjud bo'lsa;
 - unda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;
 - o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;
 - ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;
 - ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
 - ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.
 - ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha arizani taqdim etmagan bo'lsa;
 - ishtirokchi shartnoma tuzish huquqiga ega bo'lmasa;
 - ishtirokchi barcha zarur hujjatlar to'plamini belgilangan muddatda taqdim etmasa yoki o'z vaqtida taqdim etilgan hujjatlar to'plami tender hujjatlari talablariga javob bermasa;
 - ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda.
 - tender e'lon qilingunga qadar ta'sis etilganiga 6 oy bo'lmagan;
 - zarur hollarda texnik baholash ekspert guruhi taklif etilayotgan mahsulotlarning namunalarni so'rashga (soha mutaxassislari tomonidan o'rganish va baholash uchun) xaqli va o'z navbatida ishtirokchi namunalarni 3 ish kunida taqdim etishga majbur, aks holda taklif ko'rib chiqilmaydi va tenderdan chetlashtiriladi.
 - muassislari bitta yuridik va jismoniy shaxslar bo'lgan ishtirokchilar.
- Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qaror va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi bayonnomaga (hisobotga) kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.
- 6.5 Agar tender taklifi Qonunning va tender hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tender taklifi tender hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi

- bo'yicha xarid komissiyasi topshirig'iga asosan ishchi va ekspert guruhlarining xulosalari komissiyaning ma'sul kotibi tomonidan joylashtiriladi va komissiya tomonidan tasdiqlanadi.
- Ishtirokchining tender taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.
- 6.6 Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi elektron tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.
- Tushuntirish berish jarayonida berilgan taklif va narx bo'yicha o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi.
- 6.7 Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan oshishi mumkin emas.
- 7.1 Tenderda ishtirok etish uchun taklif davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarda tayyorlanadi.
- 7.2 Elektron tender o'tkazilganda ishtirokchilar tender takliflarini elektron konvert ko'rinishida o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali elektron tenderni o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.
- Har bir joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.
- 7.3 Tender taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin*.
- *Agar davlat xaridlari shartlarida ishtirokchilar tomonidan xarid obyekti bo'lgan mahsulotlarning namunasi taqdim etilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xarid komissiyasi ularni ishtirokchilar tomonidan topshirishning alohida tartibini belgilaydi.
- Ishtirokchilar mahsulotlar uchun 2 (ikki) nus'hadan kataloglar topshirilganligi to'g'risidagi dalolatnomani taqdim etadilar (3-ilova)ga muvofiq.
- Tender ishtirokchisi taqdim qilgan jihozlash ishlari uchun kataloglar davlat buyurtmachisi tomonidan qabul qilingan sana, vaqti, miqdori ko'rsatilgan holda hamda qabul qilayotgan va topshirayotgan shaxsning imzosi bilan kataloglarni qabul qilish jurnalida qayd qilingan holda qabul qilish dalolatnomasi (10-shakl) asosida amalga oshiriladi. Qabul qilingan kataloglar ekspert guruhlari tomonidan o'rganiladi va baholanadi. Kataloglar buyurtmachi tomonidan 2022-yil "____" _____ Toshkent vaqti bilan soat 15:00 gacha qadar (shanba va yakshanba kunlaridan tashqari) qabul qilinadi.
- Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi 17-uy. Tel.: (+99891 010-71-77)
- Tender savdolarida g'olib bo'lmagan tender ishtirokchilari g'oliblar ro'yxati tasdiqlangandan so'ng 5 kun mobaynida

taklif qilinayotgan kataloglarni vaqtincha saqlashdan olib ketishlari shart. Ushbu muddat tugagandan so'ng tender ishtirokchilari tomonidan talab qilib olinmagan kataloglar belgilangan tartibda yo'q qilinishi lozim.

Tender g'oliblari jihozlash ishlari yuzasidan tuzilgan shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar avval vaqtincha saqlashga berilgan kataloglarni qoldiradi. Shartnoma shartlari bajarilgandan so'ng tender G'olibi (Ijrochi) 5 kun mobaynida o'zining katalogini olib ketishga haqli.

* 5 kun mobaynida olib ketilmagan kataloglar o'rnatilgan tartibda yo'q qilinadi.

* Ishtirokchilarning tender takliflari elektron tizimda shablonlarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

7.4 Tender takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular elektron tender ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

7.5 Elektron tender ishtirokchisi:

- bitta lotga faqat bitta tender taklifini berishga haqli

- taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliigi va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi;

- tender takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

7.6 Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda elektron tizim tender takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

7.8 Ishtirokchining texnik taklifi quyidagini o'z ichiga olishi lozim:

Texnik taklif mazkur yo'riqnomaga ilova qilingan 7-shaklga muvofiq taklif etilayotgan mahsulot texnik tavsiflarining taqqoslama jadvali.

7.9 Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo'limiga kiritiladi.

8 Tender takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish

8.1 Zarur bo'lgan hollarda buyurtmachi tomonidan tender takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki elektron tender ishtirokchilariga tender takliflari qabul qilinishi muddati xarid komissiyasi qarori bilan ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

8.2 Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Mahsulotning (ishning, xizmatning) nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o'n ish kuniga uzaytiriladi. Shu

- bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tender o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.
- 9 Elektron tender natijalarini sarhisob qilish**
- 9.1 Tender hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:
- tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini **(eng past narx usulidan foydalanganda)** g'olib sifatida aniqlaydi.
- Zaxira ijrochisini aniqlash mazkur bandeda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 9.2 Quyidagi hollarda tender o'tkazilmagan deb topiladi:
- agar tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa;
 - agar xarid komissiyasi texnik baholash bosqichida barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa.
- Bunday holatda buyurtmachi tenderni ayni o'sha shartlarda hamda mahsulotga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.
- 9.3 Tender takliflarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tizimdagi mavjud shablonlar asosida xarid komissiya yig'ilishining elektron bayonnomalarini shakllantiradi hamda tasdiqlash uchun xarid komissiyasi a'zolariga yo'llaydi.
- Xarid komissiyasi a'zolari yig'ilishining elektron bayonnomalarini elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma portalda avtomatik ravishda e'lon qilinadi.
- 9.4 Elektron tenderning istalgan ishtirokchisi tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng Buyurtmachiga elektron tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.
- Buyurtmachi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida elektron tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.
- 10 Boshqa shartlar**
- 10.1 Tender g'olibi tuzilayotgan shartnomaning umumiy summasining 1% miqdorida shartnoma majburiyatlarini bajarish kafolatini (zakalat yoki bank kafolati shaklida) taqdim etadi.
- 10.2 Elektron tender ishtirokchisi tender hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tender takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin so'rov yuborishga haqli.
- Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida Buyurtmachi, agar ushbu so'rov Buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo'lsa, tender bo'yicha xarid qilish

- hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirish kerak.
- 10.3 Elektron tender ishtirokchisi tender takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.
- 10.4 Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda Buyurtmachi bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida elektron tizim orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.
- 11 Tender natijalari bo'yicha shartnoma tuzish**
- 11.1 Elektron tender natijalari bo'yicha shartnoma tender hujjatlarida va tender g'olibi taklifida ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab ____ kunlik muddatdan kechiktirmasdan elektron hujjat shaklida tuziladi.
- 11.2 Shartnoma tomonlarning elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi va Shartnomalarning yagona reestriga kiritiladi. G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi va buyurmachining hisob raqamida qoladi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib, g'olib tomonidan taklif etilgan narxda shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, Buyurtmachi yangi tender o'tkazadi.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

2022-yil “___” _____dagi
_____ -son

Xarid komissiyasiga

ARIZA

№ _____-lot _____ (*tender predmeti nomi*) yetkazib berish bo'yicha tender hujjatlarini, so'rovlarimizga olingan javoblarni o'rganib chiqib, biz, quyida imzo chekuvchi _____ (*tender ishtirokchisi nomi*), tender hujjatlariga muvofiq elektron tenderda ishtirok etish niyatini bildiramiz.

Shu munosabat bilan, quyidagi hujjatlarni yubormoqdamiz:

1. Elektron tender ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot;
2. ___varaqa da malaka hujjatlari to'plami (varaqlar soni ko'rsatilsin, broshyuralar, bukletlar, kompakt-disklar va boshqalar taqdim etilganda, ularning miqdori ko'rsatilsin);
3. Texnik taklif hujjatlari (tender hujjatlarida qayd etilgan) va namunalar to'g'risidagi qabul qilish dalolatnomasi;
4. Narx taklifi;
5. Boshqa hujjatlar (*boshqa hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, nomi va varaqlarning sonini ko'rsating*).

Taklifni tayyorlash uchun mas'ul shaxsning to'liq F.I.Sh.:

Bog'lanish uchun telefon/faks: _____

Elektron pochta manzili: _____

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.Sh. va imzosi

MO'.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

2022-yil “___” _____dagi
_____ -son

Xarid komissiyasiga

KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan _____
(*ishtirokchi nomi*)

- Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligini;
- Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida emasligini;
- Bankning offshor zonalarda ro‘yxatdan o‘tkazilmaganligini;
- Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlari yo‘qligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

Rahbarning F.I.Sh. _____

Bosh buxgalterning (moliya bo‘limi boshlig‘i) F.I.Sh. _____

Huquqshunos F.I.Sh. _____

MO‘.

to'g'risida umumiy ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar	Ma'lumot
1	Korxonaning to'liq yuridik nomi va mulkchilik shakli:	
2	Korxonada tashkil topgan vaqt va ro'yxatdan o'tgan raqami:	
3	Xizmat ko'rsatuvchi bank:	
4	Korxonaning rahbari:	
5	Korxonada rahbarining telefon raqami	
6	El. pochta:	
7	Nizom jamg'armasi:	
8	Ta'asischilar%:	
9	Kod OKONX, OKED, STIR:	
10	Korxonaning ishlab chiqarish hududi manzili:	
11	Ishlab chiqarish maydoni (kadastrdagi pasportlari asosida):	
12	Umumiy yer maydoni:	
13	Korxonaning ishlab chiqarish binosi mavjudligi yoki ijara shartnomasi asosidagi to'g'risida (kv.m)	
14	O'rnatilgan dastgohlar (nomi, soni va ishlab chiqarilgan yili ro'yxat asosida)	
15	*Faoliyat turi (asosiy va qo'shimcha):	
16	Ishchilar soni	
17	Ishchilarga to'langan jami ish xaqi (barcha ushlanma va o'tkazmalar bilan)	
18	O'rtacha ish haqi:	
19	Zarur bo'lgan asosiy xom-ashyosi (o'rtacha yillik hajmi, nomi bilan):	
20	2019-yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (xizmatlar) hajmi so'mda	
21	2020-yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (xizmatlar) hajmi so'mda	
22	2021-yil ishlab chiqarilgan mahsulotlar (xizmatlar) hajmi so'mda	

Muhr

imzo

TENDER ISHTIROKCHISINING MOLIVAVIY HOLATI (*)

Tender ishtirokchisining nomi: _____

(valyutani ko'rsating)

AKTIV	2019-y.	2020-y.	2021-y.	PASSIV	2019-y.	2020-y.	2021-y.
I. Uzoq muddatli aktivlar				I. O'z mablag'lari manbalari			
Asosiy vositalar (qoldiq qiymati)				Ustav kapitali			
Nomoddiy aktivlar (qoldiq qiymati)				Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)			
				Maqsadli tushumlar			
Qimmatli qog'ozlar				II. Majburiyatlar			
Kapital qo'yilmalar				Uzoq muddatli majburiyatlar, qarzar			
Investitsiyalar				Kreditor qarzdorlik:			
II. Joriy aktivlar				shu jumladan, muddati o'tgani			
Ishlab chiqarish zaxiralari				shu jumladan, byudjet bo'yicha qarzdorlik			
Tugallanmagan ishlab chiqarish				shu jumladan, ish haqi bo'yicha qarzdorlik			
Tayyor mahsulot							
Debitor qarzdorlik							
Pul mablag'lari							
Boshqa joriy aktivlar							
<i>Balans aktivi bo'yicha jami (I.+ II. bo'limlar)</i>				<i>Balans passivi bo'yicha jami (I.+ II. bo'limlar)</i>			

MOLIVAVIY NATIJALAR

_____ (valyutani ko'rsating)

Ko'rsatkichlar nomi	2019y.	2020y.	2021y.
1. Sotishdan sof tushum			
2. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi			
4. Ma'muriy xarajatlar			
5. Boshqa xarajatlar			
6. Boshqa daromadlar			
7. Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)			
8. Foyda solig'i			
9. Foyda (zarar)			

Rahbar _____ Bosh hisobchi _____

MO'.

Sana: 20__y. "___" _____

(* Moliyaviy holati boshqa mezonlar bilan belgilanadigan kompaniyalar uning moliyaviy holatini belgilaydigan boshqa shaklni taqdim etishlari mumkin. Buxgalteriya hisoboti nusxasi (oxirgi 3 yillik) ilova qilinadi.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

Xarid komissiyasiga

**Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha
ARIZA**

Ushbu xat bilan _____:
(ishtirokchi nomi)

a):

— O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga rioya etish;

- Buyurtmachi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida Buyurtmachining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilmaslik, bermaslik yoki berishga rozilik bildirmaslik;

- raqobatga qarshi harakatlarni sodir etmaslik, shuningdek affillanganlik hollariga yo‘l qo‘ymaslik;

- firibgarlik, ma’lumotlarni soxtalashtirish va korrupsiyani oldini olish;

- yolg‘on yoki soxta hujjatlarni taqdim etmaslik, ayni bitta lotda ishtirok etgan affillangan shaxslar yoki manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib berish majburiyatini o‘z zimmasiga olishini;

b):

- Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuviga ega emasligini, ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yaqin qarindoshlarning mavjud emasligini;

- narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko‘rsatish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan oldindan til biriktirmasligini tasdiqlaydi.

Imzolar:

Rahbar F.I.Sh. _____

Bosh hisobchi (moliya bo‘limi boshlig‘i) F.I.Sh. _____

Huquqshunos F.I.Sh. _____

MO‘.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

ISHONCHNOMA

2022-yil “___” _____dagi
_____ -son

Xarid komissiyasiga

Ushbu Ishonchnoma _____ni (*mahsulot nomi*) jihozlash ishlari bo'yicha tenderda ishtirok etuvchi _____ga (*ishtirokchi nomi va manzili*) berilgan. _____ (*ishlab chiqaruvchi nomi*), _____da joylashgan (*ishlab chiqaruvchining to'liq manzilini kiriting*) zavodlariga ega bo'lgan rasmiy ishlab chiqaruvchisi sifatida _____ga (*ishtirokchi nomi*) tender taklifi berishiga ishonch bildiradi.

Ushbu Ishonchnoma bilan biz tomondan ishlab chiqarilgan _____ni (*mahsulot nomi*) taqdim etish va yetkazib berish vakolati berilmoqda.

Agar _____ (*ishtirokchi nomi*) tender g'olibi deb topilsa, ishlab chiqaruvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- me'yoriy-texnik hujjatlar talablariga muvofiq (xalqaro standartlarga muvofiq) jihozlarni o'rnatish;

- jihozlarni o'rnatishda qabul qiluvchi uchun texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha yo'riqnomalar, sxemalar va boshqa hujjatlar taqdim etish.

Korxonra rahbari yoki vakolatli shaxsining imzosi va F.I.Sh.

MO'.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

_____ (tender raqami va predmetini ko'rsating) tender savdolari bo'yicha

TEXNIK TAKLIF

2022-yil "___" _____dagi
_____ -son

Xarid komissiyasiga

Mobil guruhlarini sifatida faoliyat ko'rsatadigan avtobuslarni va o'yin maydonchalarini jihozlash bo'yicha elektron shaklda o'tkazilayotgan tender savdosining tender hujjatlari _____ korxonasi tomonidan o'rganib chiqilib, № _____-lot
(tender ishtirokchisi nomi)

_____ bo'yicha ko'rsatilgan texnik talablar asosida manzilli ro'yxat
(taklif etilayotgan lot nomi)
bo'yicha belgilangan joylarda jihozlash ishlarini amalga oshirish yuzasidan taklif qilamiz.

Biz ushbu texnik taklifga to'liq rioya qilgan holda, tender g'olibi bilan tuziladigan shartnoma bo'yicha jihozlash ishlarini bajarib berish majburiyatini olamiz.

Biz tender takliflarini berish muddatining oxirgi sanasi sifatida belgilangan kundan boshlab 45 ish kuni davomida ushbu taklif shartlariga rioya qilishga rozimiz. Ushbu tender taklifi biz uchun majburiy bo'lib qoladi va ko'rsatilgan muddat tugashidan oldin istalgan vaqtda qabul qilinishi mumkin.

Ilovalar:

_____varaqa taklif etilayotgan jihozlarning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali;

(vakolatli shaxs imzosi)

(vakolatli shaxs lavozimi va F.I.Sh.)

M.O'.

Sana: "___" _____ 2022-y.

Taklif etilayotgan jihozlash ishlari texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali

T/r	Parametr nomi	Texnik topshiriq talablaridagi ko'rsatkich	Ishtirokchining taklifidagi ko'rsatkich	Izoh (talablarga javob beradi / talablarga javob bermaydi)
	<i>(jihozlash ishlari nomi)</i>			
1				
2				

Ishtirokchi rahbarining yoki vakolatli shaxsning imzosi va F.I.Sh.

MO'.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

NARX TAKLIFI

" Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga mebel va boshqa jihozlarni elektron shaklda xarid qilish bo'yicha
TENDER TAKLIFI

2022-yil " ___ " _____ dagi
_____ -son

Tender komissisiga

" Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga mebel va boshqa jihozlarni elektron shaklda xarid qilish bo'yicha o'tkazilayotgan tender savdosining tender hujjatlari _____ korxonasi
(tender ishtirokchisi nomi)

tomonidan o'rganib chiqilib, № ___ -lot _____ bo'yicha jihozlarni o'rnatish, montaj qilish va boshqa xizmatlarni amalga oshirgan holda xavfsizlik choralariga muvofiq foydalanish uchun tayyor holatga keltirish, hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarning mohiyati bilan tanishganimizni ma'lum qilamiz.

Barcha talablarni tahlil qilgandan so'ng, tender shartlariga muvofiq yetkazib berish bo'yicha quyidagilarni taklif qilamiz:

- to'lov shartlari — _____;
- yetkazib berish shartlari — _____;
- yetkazish vaqti — _____;

Tender takliflarini qabul qilish tugagan sana sifatida belgilangan kundan boshlab 90 kun davomida ushbu oferta qoidalariga rioya qilishga rozilik bildiramiz. Ushbu tender taklifi biz uchun majburiy bo'lib qoladi.

Eng past narx taklif taqdim etgan talabgor korxonaga g'olib deb e'lon qilinishini tushunamiz.

(vakolatli shaxs imzosi)

(vakolatli shaxs lavozimi va F.I.Sh.)

M.O'.

Sana: " ___ " _____ 2022-y.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

ISHONCHNOMA

Kompaniya (korxonalar va boshqalar) _____, bundan keyin "korxonalar" deb ataladi,
 (Korxonalar nomi)
 tomonidan _____, ustav (Nizom va boshqalar asosida harakat qiladi) asosida faoliyat yurituvchi,
 (korxonalar rahbari F.I,Sh)
 ushbu ishonchnoma fuqaro _____ (pasport seriyasi va raqami _____, berilgan vaqti
 (korxonalar vakili F.I,Sh)
 _____ kim tomonidan berilganligi)ga korxonaning vakili sifatida quyidagi faoliyat bo'yicha faoliyat yuritishga
 ruxsat beradi.

- a) tender hujjatlarini taqdim etish;
- b) tender buyurtmachisi muzokaralar olib borish;
- v) takliflarni ochishda tender komissiyasi yig'ilishlarida qatnashish;
- g) tender taklifining texnik va narx qismiga doir savollarni hamda boshqa masalalarni tushuntirish.

Ushbu ishonchnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va tender natijalari, uni imzolash va O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlarida tekshirish tartibi bo'yicha tuzilgan shartnoma bandlarini tasdiqlashning butun jarayoni uchun amal qiladi.

Shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab uning ostidagi huquq va majburiyatlar ularning yakuniy bajarilishigacha to'liq hajmda "kompaniya"ga o'tkaziladi.

 (vakolatli shaxs imzosi)

 (vakolatli shaxs lavozimi va F.I.Sh.)

M.O'.

Sana: " ____ " _____ 2022-y.

**KATALOGLARNI TOPSHIRISH VA
QABUL-QILISH DALOLATNOMASI**

TOPSHIRUVCHI TOMON	QABUL QILUVCHI TOMON
Manzil: _____ _____	_____
Tel: _____	_____
x/r _____	_____
MFO: _____	_____
STIR: _____	_____
OKONX _____	_____
_____	_____

Korxonah rahbari

F.I.Sh. _____

Tashkent sh.

“ ____ ” _____ 2022 g.

TOPSHIRISH VA QABUL-QILISH DALOLATNOMASI

№ _____

Biz, quyida imzo chekuvchilar _____ (topshiruvchi) va Maktabgacha ta'lim vazirligi (qabul qiluvchi) Mobil guruhlarini sifatida faoliyat ko'rsatadigan avtobuslarni va o'yin maydonchalarini jihozlash ishlari bo'yicha elektron shaklda o'tkazilayotgan tender savdolarida ishtirok etish maqsadida korxonamiz tomonidan taklif etilayotgan quyidagi kataloglarni topshirdik. Ushbu katalogdagi taklif namunasi bo'lib, tender savdolari yakuni natijalari e'lon qilingunga qadar saqlanadi.

Agar korxonamiz tender jarayonlarida g'olib bo'lgan taqdirda tuzilgan shartnoma shartlari to'liq bajarilgunga qadar kataloglar saqlanadi.

№	Katalog nomi	O'l. Bir	Soni	Taqdim etilayotgan lot raqami

Vakil _____

(F.I.Sh.)

Vakil _____

(F.I.Sh.)

Topshirdi: _____

Qabul qildi: _____

Tender takliflarini baholash ketma-ketligi:

Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- tender taklifining tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish (1-jadval);
- ishtirokchining malaka talablarga (tender hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa) muvofiqligini baholash (2-jadval);
- tender taklifining texnik qismini baholash (3-jadval);
- tender taklifining narx qismini baholash (4-jadval).

Bunda elektron tizim tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi

**Elektron tenderda ishtirok etish uchun ishtirokchilar
tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar
RO'YXATI**

1-jadval

t/r	Tenderda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan tuziladigan hujjatlar va ma'lumotlar	Izoh	Ishtirokchini chetlashtirish uchun asos
1	Xarid komissiyasi raisi nomiga elektron tenderda ishtirok etish uchun ariza (<i>1-shakl</i>)	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
2	Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat	Hujjat mavjud bo'lmagan taqdirda, ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
3	Quyidagilarni tasdiqlovchi kafolat xati:		
3.1	- ishtirokchi qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish) tugatish bosqichida emasligini; - Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida ishi ko'rib chiqilmayotganligini; - ishtirokchining ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarining mavjud emasligini;	2-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
3.2	- o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillarining joriy etilmaganligi (Davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma'lumoti).		Qonunning 42-moddasi
4	Tender ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot	3-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
5	Ishtirokchining moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot va buxgalteriya xisoboti (oxirgi 3 yillik)	4-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
6	Soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	Vakolatli organdan ma'lumotnoma taqdim etiladi, agar muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, ishtirokchi tenderda ishtirok etishdan chetlatiladi	Qonunning 42-moddasi
7	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	5-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Qonunning 67-moddasi
8	Offshor hududlarga aloqadorligi	Agar ishtirokchi va/yoki uning banki offshor hududlarda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa bo'lsa, ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
7	Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi	Agar ishtirokchi Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilgan bo'lsa, ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi	Qonunning 42-moddasi
9	Manfaatlar to'qnashuvi	Manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari bo'lgan ishtirokchilar keyingi bosqichga qo'yilmaydi	Qonunning 46-moddasi
10	Tender ishtirokchisi tender takliflari qabul qilinishining oxirgi muddatiga qadar 2 (ikki) nus'hadan kataloglar topshirganligi to'g'risidagi dalolatnomani (10-shakl) taqdim qilishi lozim.	Qabul qilish va topshirish dalolatnomalari asosida rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra chetlashtiriladi

Dastlabki malakaviy baholashni o‘tkazish tartibi va mezonlari
(ushbu jadval ishtirokchilarning malaka talablariga qo‘yilgan hollarda to‘ldiriladi)

№	Mezonlarning nomi	Talabga javob beradi /Talabga javob bermaydi
I.	Malakaviy tanlash hujjatlarning asosiligi	
1	Xarid savdosida ishtirok etish uchun ishtirokchining arizasi (1-shakl), ishtirokchining umumiy ma’lumoti (3-shakl), Texnik va Narx takliflaridan biri mavjud bo‘lmasa, yoki xarid hujjatlariga mos ravishda taqdim etilmagan bo‘lsa ishtirokchi xarid savdosidan chetlatiladi.	
2	Xarid ishtirokchisining qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida emasligi (Davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma’lumoti), buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida emasligi, insofsiz ijrochilarning yagona reestrda mavjud emasligi, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo‘qligi to‘g‘risida kafolat xati (2-shakl)dan birontasi taqdim etilmagan bo‘lsa. Yoki taqdim etilgan bo‘lib, xarid ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritilgan, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlari bor bo‘lsa, ishtirokchi xarid jarayonlaridan chetlatiladi.	
3	Bir lot uchun taklif bergan ishtirokchilarining ta’sischisi aynan bir yuridik va jismoniy shaxs bo‘lgan taqdirda ishtirokchilar xarid savdolaridan chetlatiladi.	
4	Ishtirokchining, shuningdek ishtirokchi bankining offshor zonalarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, ishtirokchi xarid savdosidan chetlatiladi.	
5	Ishtirokchining moliyaviy holati yuzasidan ma’lumotlar (4-shakl) va buxgalteriya xisobotlari taqdim etilmagan bo‘lsa, ishtirokchi xarid savdosidan chetlatiladi.	
6	Ishtirokchining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to‘g‘risida soliq organidan olingan ma’lumotnoma taqdim etilmagan yoki ishtirokchi bo‘yicha byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar oldida qarzdorlik mavjud bo‘lsa, ishtirokchi xarid savdosidan chetlatiladi.	
7	Ishtirokchi xarid taklifining qaytarilmasligini ta’minlaydigan bo‘nak to‘lovini taklif topshirish oxirgi muddatiga qadar to‘lamasa yoki bank kafolatini ushbu muddatda taqdim etmagan bo‘lsa, ishtirokchi xarid savdosidan chetlatiladi.	
8	Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan kataloglar topshirganligi to‘g‘risidagi rasmiylashtirilgan dalolatnoma (10-shakl) (taklif topshirish oxirgi muddatiga qadar) mavjud bo‘lmasa, xarid savdosidan chetlatiladi.	

I. Bosqich: Takliflarni texnik baholash.:

Tender komissiyasi tomonidan texnik takliflarni baholash korxonaning takliflari va xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Tender ishtirokchilarining texnik baholashdan o'tmagan takliflari diskvalifikatsiya qilinadi. Bunday holda, keyingi bosqichga (narx taklifi qismiga) o'tkazilmaydi.

№	Mezon	Baholash	Izoh
1	Tender hujjatining texnik talablariga jihozlash ishlarining (jihozlar xarid qilish, o'rnatish, montaj qilish va boshqa xizmatlari bilan birga) har bir texnik ko'rsatgichlari muvofiqligi	Mos keladi/ mos kelmaydi	Agar mos kelmasa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi va uning tender taklifi ko'rib chiqilishdan chetlatiladi

I. Bosqich: Takliflar narxini baholash.

Bunda elektron tizim tender taklifining malaka va texnik qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.

№	Mezon	Baholash	Izoh
1	Eng past narx	Eng past narxni taklif etgan ishtirokchi g'olib sifatida aniqlanadi. Narx shkalasi bo'yicha g'olibdan keyingi ishtirokchi zahiradagi g'olib sifatida aniqlanadi.	Shu bilan birga, narx shkalasi ishtirokchilarning takliflari soniga qarab shakllantiriladi.

Tender savdolarida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda kamida uchta mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etsa, ushbu mahalliy ishlab chiqaruvchilarga (mahsulotlarga) takliflarni baholashda foydalaniladigan imtiyozlar va preferensiyalar berilishi mumkin. (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga ko'ra*).

Mobil guruhlari sifatida faoliyat ko'rsatadigan avtobuslarni va o'yin maydonchalarini jihozlash ishlari bo'yicha elektron shaklda o'tkaziladigan tender jarayoniga taqdim etadigan kataloglar to'g'risida ma'lumot

Lot raqami	Lot nomlari	Katalog
Lot № 1	Mobil guruhlari sifatida faoliyat ko'rsatadigan avtobuslarni jihozlash ishlari	Katalog
Lot № 2	Mobil guruhlari uchun o'yin maydonchalarini jihozlash ishlari	Katalog

II. TENDER HUJJATLARINING TEXNIK QISMI.

**Mobil guruhlari sifatida faoliyat ko'rsatadigan avtobuslarni
va o'yin maydonchalarini jihozlash ishlarining texnik tavsifi**

**Mobil guruhlari sifatida faoliyat ko‘rsatadigan avtobuslarni
jihozlash ishlarining texnik tavsifi**

**Avtobuslar negizida mobil guruhlarni shakllantirish uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ**

1. Umumiy ma'lumotlar.

Xarid qilish obyektining nomi: "Aqlvoy" mobil guruhlari uchun avtobusni qayta jihozlash.

1.1. Buyurtmachi: Maktabgacha ta'lim vazirligi.

1.2. Yetkazib beruvchini aniqlash usuli: elektron tender.

Narxga Pudratchining kontrakt predmeti bo'lgan ishlarni bajarish bilan bog'liq barcha xarajatlariga ishlarni bajarishda foydalaniladigan tovarlarning qiymati, shu jumladan, transport va sug'urta xarajatlari, soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash xarajatlari kiradi.

1.3. Ishlarni bajarish muddati: 90 kun.

1.4. Avtobuslar yetkazib beriladigan viloyat: Qashqadaryo (3 ta), Surxondaryo (4 ta).

1.5. Qayta jihozlanadigan avtobuslarning umumiy soni: 7

Avtobusining texnik xususiyatlari	
Transport vositasi toifasi	M3
Shassining gabarit hajmlari mm (maks)	Uzunligi 6 920 ± 30
	Kengligi 2 240 ± 10
	Balandligi 2 880 ± 50
	G'ildirak bazasi 3 815 ± 15
Yo'lovchi sig'imi (maks), kishi:	38
Yonilg'i	Dizel yoqilg'isi
Alohida talablar	yo'lovchi o'rindiqlari va tutqichlarisiz
Kuzov rangi	RAL 1016 (sariq)
Avtobuslarning soni	7 dona

Ushbu mobil guruhlariga maktabgacha ta'limning muqobil shakli sifatida qarash va ularning negizida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'quv va o'yin faoliyatini yaratish rejalashtirilmoqda.

Mobil guruhlarning maqsadi:

- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ✓ eng chekka hududlardagi qishloq joylarda maktabgacha yoshdagi bolalarni qamrab olishni oshirish, aholi uchun arzon maktabgacha ta'lim xizmatlarini yaratish;
- ✓ mobil guruhlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ✓ maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lmagan, biroq ehtiyoj yuqori bo'lgan eng chekka hududlardagi qishloq joylarda ham maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mobil guruhlar tashkil etiladi. Mazkur qishloq hududida to'laqonli maktabgacha ta'lim tashkilotini barpo etish ko'p mehnat, mablag' va ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir.

Mobil guruhlar avtobuslar negizida tashkil etiladi. Avtobuslar tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq qayta ta'mirlanadi va jihozlanadi. Bitta avtobus uchun zarur bo'lgan uskunalar, jihozlar va to'plamlar ro'yxati **A-ilovada** keltirilgan.

Mobil guruhlar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yo'nalish bo'yicha harakatlanadi. Bir to'xtash joyidan boshqa to'xtash joyigacha bo'lgan masofa taxminan 5 kilometrdan 20 kilometrgacha.

Mobil guruhlar o'quv faoliyatini maxsus avtoturargohlarda olib boradi.

Mobil guruhlar uchun ushbu ixtisoslashtirilgan maydonlar uchun yer uchastkalari 2-ilovaga muvofiq mahalliy hokimliklar tomonidan ajratiladi va Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ixtisoslashtirilgan avtoturargohlar atrofini xavfsizlik qoidalarini inobatga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalar yashash joyiga yaqin masofada to'sib qo'yish rejalashtirilgan. Shuningdek, maydonni buyurtmachining tasdiqlangan ro'yxatiga asosan o'yin majmuasi bilan jihozlash rejalashtirilgan.

Mobil guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kuniga 3 soatdan olib boriladi, ovqat tayyorlanmaydi, biroq isinish va yengil yegulik tashkil qilish imkoniyati nazarda tutiladi.

Mobil guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayoni hudud ehtiyojlari va iqlim sharoitini hisobga olgan holda 2 yoki 3 navbatda tashkil etiladi.

Mobil guruhlar butun o'quv yili davomida haftasiga 6 kun ishlaydi. Shu munosabat bilan avtobus ichidagi xonalar isitilishi va sovutilishi kerak.

Xonalarni isitish va sovutish termoregulyator va haddan tashqari isib ketishdan himoya bilan jihozlangan elektr isitish va elektr sovutish moslamalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Kondensat hosil bo'lishining oldini olish uchun xonadagi namlik 70 foizdan oshmasligi kerak.

Mobil guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalar bilim oladi, o'z ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Deyarli barcha mashg'ulotlar ochiq havoda, noqulay ob-havo sharoitida esa avtobus ichida o'tkaziladi.

Bolalar bilan 2 nafar katta yoshdagi inson – tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi birga bo'ladi. Avtobusni boshqarish va ekspluatatsiya qilish hamda uning texnik holati tegishli ruxsatnomaga ega bo'lgan va mobil guruhlar konstruksiyasi haqida bilimga ega haydovchi tomonidan nazorat qilinadi. Haydovchi pedagogning samarali va to'laqonli ishlashi uchun mobil guruhlar konstruksiyasining zarur qismlarini mustaqil ravishda yig'ish va qismlarga ajratish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Davlat o'quv dasturini amalga oshirish va ta'lim jarayonini to'liq sifatli o'tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida quyidagilarni ta'minlash kerak:

- bolalar bilan mashg'ulotlar;
- ustki kiyim va poyabzal;
- birinchi yordam uchun dori-darmonlarni saqlash;
- avtobus ichida qo'l yuvish;
- o'quv-uslubiy va didaktik material;
- o'yinchoqlar va kanselyariya buyumlari;
- avtobus ichidagi sanitariya punkti;
- pastak yumshoq o'rindiqlarni saqlash;
- bolalar idishlarini saqlash;
- sport jihozlarini saqlash;
- yig'ma panjarani saqlash;
- tozalash uskunalarini saqlash.

Barcha jihozlar SanQvaM (SanPin) standartlariga muvofiq bo'lishi shart (*СанПиН № 0355-18 САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОДЕРЖАНИЮ, УСТРОЙСТВУ И ОРГАНИЗАЦИИ РЕЖИМА РАБОТЫ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН*).

BIR (1) AVTOBUS UCHUN USKUNALAR, JIHOZLAR VA TO'PLAMLAR RO'YXATI

№	Uskunalar va materiallarning nomi	Texnik xususiyatlari	O'lch. bir.	Soni
1	Mikroto'liqlik pech	20L – 24L, quvvati 700-800 Vt.	dona	1
2	Konditsioner	O'rnatiladigan 12 Inverter	dona	1
3	Suv sovutgichi (stolga qo'yiladigan)	18 L, sovuq va issiq suvni avtomatik yetkazib beradi, issiq suv berilganda bolalardan himoyalash tugmasi nazarda tutilgan 220 V.	dona	1
4	Sanitariya uzeli ichini fotodatchik bilan yoritish (avtomatik yoqish va o'chirish).	LED, 18W	dona	1
5	Biohojatxona uchun havo tortuvchi ventilyator	Hajmi 2m ³	dona	1
6	Qo'shimcha yoritish	LED, 50w (4 dona)	dona	4
7	Inverter quyosh panellari uchun	3000 w. 220v -24v	dona	1
8	Avtobusni elektr rozetkasiga ulash uchun tokli uzatma	Barabanli 50 metrgacha kesimli 2x2,5 PVC misli, torli kabel.	dona	1
9	Rozetkalar	Derazalarning tepasiga o'rnatiladi, plastik, oq rangli	dona	5
10	Klavishli o'chirgich (vklyuchatel)lar	Plastikli, oq rangli	dona	2
11	Avtomat o'chirgich (vklyuchatel)	25 amp. bir qutbli.	dona	4
12	Quyosh panellari bilan ichki elektr ta'minoti va tashqi elektr aloqasi uchun elektr kabeli	2,5x2 misli, torli kabel.	m	55
13	Kabellarni izolyatsiya qilish uchun gofra	Diametr 16 mm.	m	55
14	Biohojatxona (avtobus ichiga o'rnatiladi)	11L toza suyuqlik uchun tepadagi idish, torfli bak 12L	dona	1
15	Sopol (keramika) rakovina (avtobus ichiga o'rnatiladi)	30x24 – 36x25 sm, burchakli	dona	1
16	Elektr suv isitish bilan aralashtirgich	220v	komp	1
17	Suvni saqlash uchun bak	Hajmi: 60x40x25 sm 60 l	dona	1
18	Suvni to'kish uchun bak	Hajmi: 60x40x20 sm., 48l (zanglamaydigan po'lat)	dona	1
19	Suv ta'minoti uchun plastik quvur	Diametr 20 mm	m	5
20	Suv berish uchun nasos	Unumdorligi - 25l/min. – 40l/min. (220 v)	dona	1
21	Jalyuzi (metall dan) (7 dona)	900x940=1 (dona), 925x940=2 (dona), 1105x940=2 (dona), 860x940=1 (dona), 990x940=1 (dona). Hammasi (6,5 m ²)	komp.	1
22	Avtobusning asosiy xonasining pol qoplamasi (kovrolin)	2x4 m, ko'k rangdagi kovrolin	m ²	8
23	Ichkariga kiraverishdagi pol qoplamasi (gilamcha)	50x80 sm, rezinali	dona	1

24	Bolalar uchun stollar (rang-barang)	Tirkaladigan plastikli 1,2x0,60 m, 6 o‘rinli. Balandligi 54-60 sm.	dona	5
25	Bolalar uchun stollar (rang-barang)	Plastikli. Balandligi 32-36 sm.	dona	30
26	Ijodiy va individual faoliyat uchun yig‘iladigan mexanizmli bo‘lgan bolalar uchun stollar	Material: LMDF, 800x350mm	dona	4
27	Marker doskasi	Rangi oq, hajmi: 1,2x0,9 m	dona	1
28	Akkumulyatorlar uchun maxsus bo‘lim	Avtobusning yon qismida 1,5x0,6m, metall qopqoq bilan.	dona	1
29	Avtobusning orqa qismidagi mahkamlagichli pardevor (peregorodka) va konditsioner uchun taglik	Organik oynadan pardevor (peregorodka), metalli taglik konditsioner uchun.	dona	1
30	Kupe eshigi (avtobusning asosiy xonasi)	LMDF, 1710x680mm ,1450x700mm.	dona	2
31	Avtobusning tashqi ko‘rinishini “AQLVOY” dizayniga moslab brendlash va salonning ichki qoplamasiga eko-solventli bosmali orakal yopishtirish	Dizayn mijoz tomonidan tasdiqlanadi	m ²	50
32	O‘yinchoq qutilari	Material tikilgan orgalit, hajmi 330*400*350 mm	dona	4
33	Bolalar uchun kichik yumshoq o‘rindiqlar (pufik)	Hajmi 500*500 mm, rang-barang rangli.	dona	6
34	Avtobusning orqa qismida sovutgich va mikroto‘lqinli pech uchun joy bo‘lgan qo‘shimcha o‘yinchoq bo‘limlari	Material: LMDF, 785x390x2030mm.	k-t	1
35	Akkumulyator	Geliyli to‘plagich 200 amp. soat, 12 v.	dona	6
36	Xomut	Plastik	upakovka	2
37	Quyosh panellari (vertikal)	112 vatt 67x104sm. MONOKRISTALL	dona	2
38	Quyosh panellari (gorizontal)	200 vatt 80x158sm. MONOKRISTALL	dona	6
39	Quyosh panellari uchun po‘lat ferma	5,5x2,2 m, 50x50, 40x20 30 daraja egilish burchagi bilan metall profil	dona	1
40	Payvandlash elektrodleri	o‘zgaruvchan, marka 3	pachka	1
41	Shaybalar va gaykalar bilan shpilkalar	Metallik, M10	k-t	2
42	Ventil (plastikli), Sgon (zanglamaydigan), tagliklar (rezinali), shlang (rezinali)	Ventil Ø20 , sgon Ø20 - Ø32 ,	k-t	1
43	Gaykalar bilan to‘plamdagi boltlar	M10x70	kg	2
44	Gaykalar bilan to‘plamdagi boltlar	M6x60	kg	1
45	Metall bo‘yicha keskichlar	30-50 mm.	dona	250
46	Misli uchlik	16-20 mm.	dona	20
47	Nitra bo‘yog‘i	Akkumulyator bo‘linmasi va boshqa detallarning ichki qismini yopish uchun NS 132	kg	3

48	Nitra bo'yog'i	Bo'linmalar va boshqa detallarning tashqi qismini yopish uchun NS 129	kg	2
49	Qirqimi ko'p simlar (kabel многожильный)	1x10 akkumulyatorlari uchun misli	m	4
50	Quyosh panellari uchun simlar	PVS 4x2,5, misli	m	10
51	Avtobusning bagaj qismida (шит)	Plastikli, qopqoq bilan	dona	1
52	Elektr kabellari uchun gofra	20x20	m	2,5
53	Kontroler quyosh panellari uchun	50A (12/24 volt)	dona	1
54	Po'lat karkasli zichlagich (avtobus ustidagi kepka uchun)	Rezinali	m	4
55	GPS navigator	Monitoring markaziy tizimiga ega, sim karta uyasi bilan	k-t	1
56	Radorupor	200 vattli signal kuchaytirgich bilan	dona	1
57	Mikrofonli simsiz kolonka	800 -1300 vatt, 5v.	dona	1
58	Kepka maketi	Avtobus tomida metall listdan	dona	1
59	Ventilyatsion panjara	oq rangli, plastmassadan	dona	1
60	Pardevor (peregorodka) haydovchi kabinasini ajratish uchun	LMDFdan, 1910x2070mm, 1670x2120mm	k-t	2
61	Hojatxona kabinasi	LMDFdan eshik va bolalar uchun tutqich bilan, 1915x725x835mm	k-t	1
62	Divan	Ekoteridan yasalgan, katlama mexanizmli va ko'chma uskunalar uchun saqlash joyi nazarda tutilgan (bolalar stollari), hajmi 0,6*1,5 m	k-t	1
63	Bolalar uchun avtobusga chiqishga zina	Alyuminiy panjara, o'lchami 0,28*0,7 m	dona	1
64	Bolalar poyafzali uchun javon (ikki darajali javonlar)	Hajmi 0,2*0,6*0,45 m, LMDF.	dona	1
65	Televizor, diagonali:	24 dan 32 gacha, "rukav" tipidagi kronshteynli, USB ning oldingi/yon tarafdagi panelidagi o'lchami, o'qiydigan formatlar (min) MP3, WMA, MPEG4, MKV, JPEGMP3, WMA, MPEG4, HEVC, AVI, JPEG	dona	1
66	Hojatxona ichidagi sovunli idish	Metallik	dona	1
67	Hojatxona ichidagi salfetka ushlagichi	Plastikli	dona	1
68	Antiseptik yetkazib berish moslamasi	Plastikli	dona	1
69	Mobil guruhlar pedagoglari uchun "Aqlvoy" logotipli yozgi formalar to'plami	Dizayn va o'lchamlarni buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi	k-t	2
70	Mobil guruhlar pedagoglari uchun "Aqlvoy" logotipli qishgi formalar to'plami	Dizayn va o'lchamlar mijoz tomonidan taqdim etiladi	k-t	2

71	Avtobus haydovchisi uchun "Aqlvoy" logotipli kamzul (jiletka)	Dizayn va o'lchamlar mijoz tomonidan taqdim etiladi	dona	1
72	Avtobusning orqa oynasiga pardevor (peregorodka)	LMDFdan, qalinligi 16 mm, 1300x2030mm.	dona	1
73	Avtobusning orqa eshigidagi pardevor	LMDFdan, qalinligi 16 mm, 1500x840mm.	dona	1
74	Ekspluatatsiya bo'yicha "AQLVOY" qo'llanmasi	Texnik daftarcha	dona	2
75	Milliy burchak: bolalar yog'och karavoti	Yog'ochdan yasalgan, o'lchami 1,15*0,6 m	dona	1
	Yog'och karavotdagi ko'rpacha	O'lchami 0,6*1 m	dona	2
	Yog'och karavot uchun milliy xususiyatlar aks etgan yostiqlar	O'lchami 0,3*0,3 m	dona	4
	Milliy qo'g'irchoqlar (o'g'il va qiz bola)	O'lchami 0,3 metrgacha	dona	2
76	Chiqindi qutilari	Plastmassali, 5 l dan boshlab	dona	2
77	Osilgan javonlar	Matodan, o'lchami 0,26 x 1,17 m	dona	4
78	Osilgan javonlar	Didaktik va ko'rgazmali materiallar uchun, LMDF, 600x200mm, 450x200mm.	dona	2
79	Avtomobil xavfsizligi to'plami	Aptechka, kamzul (jiletka), avariya to'xtash belgisi	k-t	1
80	Bagaj qopqog'i uchun ventilyatsion panjara	Metaldan (konditsioner havosi chiqadigan joyda) 300x300mm.	dona	2

Buyurtmachi:	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi		
Ish bajariladigan joy:	Mobil guruhlar avtobusining tashqi qismi		
1. Bajarilgan asosiy ishlar ro‘yxati:	Avtobusning tashqi qismining tuzilishi		
	1	Avtobusning alohida tashqi qismlarini demontaj qilish	4 dona
	2	Quyosh panellari uchun po‘lat ferma tayyorlash, o‘lchami 50x50 dan 5,5x2,2 m, 40x20 egilish burchagi 30 daraja bo‘lgan metallik profil	12,1m ²
	3	Avtobus tomiga egilish burchagi 30 daraja bo‘lgan metallik profildan yasalgan quyosh panellari uchun po‘lat ferma o‘rnatish	1 dona
	4	Egilish burchagi 30 daraja bo‘lgan quyosh panellari uchun po‘lat ferma o‘rnatish	8 dona
	5	Metall listdan kepka maketi tayyorlash	1 dona
	6	Kepka maketi uchun MTV logotipi tushirilgan muhr	0,09m ²
	7	Metallik listdan yasagan kepka maketiga bo‘yoq surtish	1,5 m ²
	8	Avtobus tomiga MTV logotipi tushirilgan metallik listdan yasagan tayyor kepka maketi o‘rnatish	1sht
	9	Avtobusning tashqi va ichki ko‘rinishining tasdiqlangan dizaynini tayyorlash va chop etish. Avtobus tashqi ko‘rinishida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi logotipi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi (Facebook, Telegramm, Instagram va hokazolardagi) rasmiy sahifalarga havolalar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.	50 m ²
	10	Avtobusning tashqi ko‘rinishini “AQLVOY” dizayniga moslab brendlash	50 m ²
	11	Akkumulyatorlar uchun maxsus bo‘linmani o‘rnatish	1 k-t
	12	Avtobusning yon tomoniga akkumulyatorlarni o‘rnatish	6 dona
13	Avtobusning orqa qismidagi mahkamlagichli pardevor va konditsioner uchun taglik	1 k-t	
1.1. Bajarilgan asosiy ishlar ro‘yxati:	Mobil guruhlar avtobusining ichki qismi		
	1	Tayyorlovchi zavodning o‘rnatilgan uskunasi demontaj qilish	
	2	Elektrik tarmoqlar simi	
	3	Viklyuchatellar va rozetkalar o‘rnatish	
	4	Qo‘shimcha chiroqlar o‘rnatish	
	5	Avtobusning ichki devorlarini (bo‘limlarini) o‘rnatish (qoplash, sovuq o‘tmaydigan qilish...)	
	6	Avtobus xonalarining tasdiqlangan dizaynini tayyorlash, chop etish va rasmiylashtirish	
	7	Avtobusning ichki devorlariga tasdiqlangan loyihaga muvofiq orakal yopishtirish	
	8	Mebel tayyorlash (bolalar uchun yig‘iladigan stollar, marker taxtalar, divanlar, javonlar, yog‘och karavotlar va boshqalar)	
	9	Mebel o‘rnatish	
	10	Jalyuzi o‘rnatish	7 dona
	11	Pollarni montaj qilish, pol qoplamasi yotqizish	
	12	Eshik-kupe o‘rnatish	2 dona
	13	Televizor uchun kronshteyn o‘rnatish	1 dona
	14	Magnit taxtalari o‘rnatish	1 dona
	15	Konditsioner montaj qilish va o‘rnatish	1 dona
	16	Suv uchun kuler o‘rnatish	1 dona
	17	Osma javonlar uchun ilgaklar o‘rnatish	4 dona
	18	Sanitariya uzelinining devorlariga MDF panellari o‘rnatish va qoplash	
	19	Biohojatxonani montaj qilish va o‘rnatish bo‘yicha santexnika ishlari	1 dona
	20	Biohojatxona uchun ventilyator montaj qilish va o‘rnatish	1 dona
	21	Sanitar uzal uchun aralastirgich va rakovina montaj qilish hamda o‘rnatish bo‘yicha santexnika ishlari	1 dona
	22	Sanitar uzelda bolalar uchun tutqichli eshik o‘rnatish va montaj qilish	1 dona
	23	Sanitar uzelda sovun idishi va salfetka ushlagichi o‘rnatish	2 dona
24	Sanitar uzal va dahlizga gilam to‘shash	1 dona	

	25	Sanitar uzelda aralashtirgichga sovuq suv keltirish	
	26	Suv bilan saqlash bakini o'rnatish	1 dona
	27	Suv uchun to'kish idishini o'rnatish	1 dona
	28	Antiseptik chiqaradigan qurilma o'rnatish	1 dona
	29	"AQLVOY" avtobusini ishlatish bo'yicha qo'llanma ishlab chiqish va tayyorlash	1 dona
	30	Bolalar uchun mo'ljallangan alyuminiy tutqichli olinadigan zinapoyalar tayyorlash	1 dona
	31	Pedagoglar va avtobus haydovchisi uchun uniforma tikish (2 ta yozgi forma, 2 ta qishki kiyim, 1 ta haydovchi uchun kamzul)	4 ta komplekt, 1 kamzul
	32	Markaziy monitoring tizimiga ega GPS navigator o'rnatish	1 dona
	33	O'yinchoqlar uchun qutilar yasash	4 dona
	34	Matodan tikilgan osma tokchalar tayyorlash	4 dona
	35	Milliy burchak uchun ko'rpachi tikish, o'lchami	1 dona
	36	Milliy burchak uchun yostiqlar tikish, o'lchami	4 dona
	37	Bolalar uchun yumshoq kursilar tikish	6 dona
2. Ishning tarkibi va bajarilishiga qo'yiladigan asosiy talablar:	<p>- Amaldagi SanQvaM "Maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, saqlab turish va ish rejimini tashkil qilishga qo'yilgan sanitariya-epidemiologik talablari"ga muvofiq (САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ к содержанию, устройству и организации режима работы дошкольных образовательных учреждений в Республике Узбекистан).</p> <p>- Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.</p> <p>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, texnika xavfsizligi qoidalari va boshqa normativ hujjatlari.</p> <p>Shartnoma majburiyatlarini bajarish davrida malakali, texnik xodimlarni jalb qilgan holda ishlarning yuqori sifatini ta'minlash, shuningdek, ish sifati bo'yicha kafolatlariga rioya qilish. Ishning borishini sustlashtiruvchi har qanday holatlar yuzaga kelganda Pudratchi darhol Buyurtmachini xabardor qilishi shart.</p> <p>Pudratchi ishni bajarishda Buyurtmachining ko'rsatmalariga rioya qilishi, Buyurtmachining talabiga binoan ishdagi kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishi shart. Buyurtmachi tomonidan kiritilgan barcha o'zgarishlar Pudratchiga yozma ravishda taqdim etilishi kerak.</p>		
3. Ishni tashkil etishga qo'yiladigan talablar:	<p>Ish quyidagilarga muvofiq amalga oshirilishi kerak:</p> <p>- Amaldagi SanQvaM (SanPiN) "Maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, saqlab turish va ish rejimini tashkil qilishga qo'yilgan sanitariya-epidemiologik talablari"ga muvofiq (САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ к содержанию, устройству и организации режима работы дошкольных образовательных учреждений в Республике Узбекистан).</p> <p>- Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.</p> <p>- Yo'riqnomasi.</p> <p>Shartnoma imzolanganidan so'ng ish boshlanishidan oldin Pudratchi 3 (uch) ish kuni ichida Buyurtmachiga xizmat ko'rsatish loyihasi va uning jadvalini taqdim etadi.</p>		
4. Ishlarni bajarish sifati kafolatlari:	<p>Pudratchi xizmat ko'rsatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar o'z kuchi bilan va o'z mablag'lari hisobidan bartaraf etilishini ta'minlashi shart. Kafolat muddati – to'g'ri foydalanish qoidalariga rioya qilgan holda ish qabul qilingan kundan boshlab 36 oy. "Aqlvoy" avtobusi topshirilganda avtobusdan to'g'ri foydalanish qoidalarini o'rgatish dalolatnomasi tuziladi.</p> <p>Sifat kafolati barcha bajarilgan ishlar uchun, shuningdek, ishni amalga oshirishda foydalaniladigan materiallar uchun o'rnatiladi.</p> <p>Agar kafolat muddati davomida pudratchining aybi bilan obyektning normal ishlashiga xalaqit beradigan nuqsonlar aniqlansa, pudratchi ularni o'z hisobidan va Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatda bartaraf etishi shart.</p> <p>Kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi dalolatnomani tuzishda ishtirok etish, ularni bartaraf etish tartibi va shartlarini kelishib olish uchun pudratchi Buyurtmachidan yozma bildirishnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) kundan kechiktirmay o'z vakilini yuborishi shart, aks holda dalolatnoma tuziladi va u Buyurtmachi tomonidan bir tomonlama tartibda</p>		

	<p>tuziladi. Bunday holda, kafolat muddati tegishli ravishda nuqsonlarni bartaraf etish muddatiga uzaytiriladi.</p>
<p>5. Binolarga, yoritishga, materiallarga qo'yiladigan talablar:</p>	<p><i>Xizmat ko'rstashda foydalaniladigan asbob-uskunalar, buyumlar va materiallar davlat standartlari yoki texnik shartlarga mos kelishi, ularning muvofiqligi va sifatini tasdiqlovchi sertifikatlar, texnik pasportlarga ega bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Materiallar va jihozlardan foydalanish bo'yicha barcha muqobil takliflar Buyurtmachi bilan kelishilgan bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Barcha qurilish va pardoqlash materiallari bolalar salomatligi uchun zararsiz, shuningdek, issiqlikka chidamli va yong'inga chidamli bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Ko'chma bolalar bog'chasining binosida ochiq ranglarda (ochiq ko'k, och yashil, och sariq, och pushti, qaymoq rang) devorlar uchun pardoqlash materiallarini tanlash va ishlatish tavsiya etiladi. Alohida elementlarni yorqinroq ranglarda bo'yashga ruxsat beriladi, biroq xonaning umumiy maydonining 25 foizidan oshmasligi kerak.</i></p> <p><i>Mobil bolalar bog'chasi xonasida tabiiy yorug'lik bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Haddan tashqari izolyatsiya va binolarning qizib ketishini cheklash uchun quyoshdan himoyani nazarda tutish kerak.</i></p> <p><i>Shamollatish uchun tuynuklari bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Xonaning devorlari silliq bo'lishi, nam tozalash va dezinfeksiya qilish imkonini beruvchi qoplamaga ega bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Pollar silliq bo'lishi, sirpanchiq bo'lmasligi, zich moslashtirilgan bo'lishi, yoriqlar va nuqsonlarsiz bo'lishi kerak, plintus devor va polga mahkam o'rnatilishi lozim. Yuvish va dezinfeksiyalash vositalaridan foydalangan holda nam tozalashga imkon berishi kerak.</i></p> <p><i>Uskunalar, mebellar bolalarning bo'yi va yoshiga mos kelishi, gigiyenik va psixologik talablarni hisobga olishi kerak. Mebel xavfsiz va statik bo'lishi kerak, biroq shu bilan birga, u mobil bolalar bog'chasi xonasining maydonidan samarali foydalanishni hisobga olishi kerak (qatlamli stollar, yig'ma stullar, tortiladigan tokchalar, bo'r va marker taxtalari, yumshoq kursilar bo'lishi lozim). Jihoz va uskunalarni yengil tinchlantiruvchi rangga bo'yash tavsiya etiladi.</i></p> <p><i>Stollar qatorlari oralig'i kamida 0,5 m masofa bo'lishi tavsiya etiladi. Stollarning konstruksiyasi yig'iladigan, tekislanadigan bo'lishi kerak (masalan, poyezdlarda, samolyotlarda yig'iladigan stollar).</i></p> <p><i>Stollarning ish yuzasi yengil rangda yaltiramaydigan qoplamaga ega bo'lishi kerak. Stol va stullarni qoplash uchun ishlatiladigan materiallar past issiqlik o'tkazuvchan bo'lishi kerak, iliq suvga, yuvish va dezinfeksiyalash vositalariga chidamli bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Devor taxtasining o'lchami 0,9*1,2 m, devor taxtasining pastki chetining poldan balandligi 0,7-0,8 m bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Marker taxtadan foydalanganda markerning rangi kontrastli bo'lishi kerak (qora, qizil, jigarrang, to'q ko'k va yashil).</i></p> <p><i>Sanitariya uzelida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'sishini hisobga olgan holda biohojatxona o'rnatish nazarda tutiladi.</i></p> <p><i>Sovuq va issiq suv ulangan rakovina poldan moslama bortigacha 0,5 metrni tashkil etadi. Shuni hisobga olish lozimki, har bir bola uchun suv iste'moli darajasi 5 litrni tashkil qiladi. Quyosh energiyasidan foydalangan holda suv isitish tizimini, shuningdek, avtonom elektr ta'minoti tizimini nazarda tutish zarur.</i></p> <p><i>Sun'iy yoritish manbalari butun xona yetarli darajada bir xil yoritilishini ta'minlashi kerak.</i></p> <p><i>Yorug'lik taratish spektriga ko'ra chiroqlardan foydalangan holda asosan lyuminessent yoritishni nazarda tutish tavsiya etiladi: oq, och oq va tabiiy oq. Majburiy himoya qoplamali svetodiod chiroqlar, LED chiroqlardan foydalanish tavsiya etiladi.</i></p> <p><i>Yoritish moslamalari chang va nam o'tkazmaydigan himoya tuzilishiga ega bo'lishi kerak.</i></p> <p><i>Bolalar bo'lgan vaqtda xonadagi havo harorati 20 dan 25 ° C gacha bo'lishi kerak.</i></p>
<p>6. Ishlarni bajarish xavfsizligiga va ish natijalari xavfsizligiga qo'yiladigan talablar:</p>	<p><i>Barcha ishlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari asosida amalga oshirilishi kerak.</i></p> <p><i>Pudratchi ish paytida quyidagilar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi:</i></p> <p><i>- ish bajariladigan hududlarda harakat xavfsizligini ta'minlash uchun;</i></p>

	<p>- obyektida joylashgan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va texnikaning xavfsizligini ta'minlash chun.</p> <p>Pudratchi mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik, atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarga rioya qilishni ta'minlashi shart. Ish yong'in xavfsizligi talablari va standartlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.</p>
<p>7. Ish natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi, shuningdek, ish tugaganidan va topshirilganidan so'ng Buyurtmachiga texnik va boshqa hujjatlarni topshirishga qo'yiladigan talablar:</p>	<p>Pudratchi bajarilgan ishlarni tekshirish uchun Buyurtmachining vakilini chaqirishi shart. Obyektdagi barcha ishlar tugagandan so'ng bajarilgan ishlar to'g'risidagi aktlarni va boshqa hujjatlarni imzolash 5 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.</p>

2. Ishga qo'yiladigan talablar

Ishlar O'zbekiston Respublikasining normalar va standartlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan sifat va xavfsizlik talablariga javob berishi kerak.

Ishni boshlashdan oldin ushbu standartlarning umumiy axborot tizimida (Internetdagi texnik tartibga solish va metrologiya bo'yicha rasmiy veb-saytda) ishlashini tekshirish tavsiya etiladi.

1. Pudratchi ishni uskunalarning sxemalari va Buyurtmachining texnik topshirig'iga muvofiq bajarishi kerak.

2. Ishlarni bajarishda Pudratchi fuqarolar va ularning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishi shart.

3. Ish O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan va Buyurtmachining texnik topshirig'ida ko'rsatilgan standartlar talablariga javob beradigan materiallardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

4. Pudratchi ekspluatatsiya qilinmagan uskunani yetkazib berishi va o'rnatishi shart, uskunaning ishlab chiqarilgan yili 2022-yildan oldin bo'lmasligi kerak.

5. Buyurtmachi tomonidan belgilangan uskunalar (o'yin yoki sport elementlari) sonini ish narxini o'zgartirmasdan faqat yuqoriga qarab o'zgartirishga ruxsat beriladi.

6. Ish Buyurtmachining texnik topshirig'ida belgilangan ish turlarini bajarishda foydalanishga ruxsat berilgan va standartlar talablariga javob beradigan, uning maqsadini hisobga olgan holda, mashinalar, uskunalar, materiallar yordamida amalga oshirilishi kerak.

2.1. Amaldagi materiallarga qo'yiladigan talablar:

1. Foydalaniladigan materiallar va mahsulotlar, ularning himoya vositalari ishlatish paytida bolaning sog'lig'iga va atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatmasligi hamda bolaning terisi bilan aloqa qilganda termik kuyishlarga olib kelmasligi kerak.

2. Bolalar o'yin uskunalarining barcha faner elementlari xavfsizlikni ta'minlash va xizmat ko'rsatish muddatini oshirish uchun suv o'tkazmaydigan, silliqlangan, yumaloqlangan va sayqallangan fanerdan yasalgan bo'lishi kerak.

3. Foydalaniladigan lak-bo'yoq qoplamalar poliuretanli, bolalar o'yin maydonchalarida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lishi, yorqin rangli gammadagi ikki komponentli bo'yoqlar qiyin ob-havo sharoitlariga, yeyilishga va ultrabinafsha ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

4. Buyurtmachining texnik topshirig'ida ko'rsatilgan standartlarda belgilangan xavfsizlik talablariga muvofiq bolalar o'yin jihozlarini tayyorlashda burchakli po'latdan foydalanish taqiqlanadi.

5. Panjara, to'r va boshqa o'yin uskunalarini teshiklarining o'lchamlari bolaning barmoqlari, oyoq barmoqlari va boshiga xavf tug'dirmasligi kerak. Chiqib turadigan gaykalar va boltlar qirralari plastik tiqinlar bilan qoplangan bo'lishi kerak.

6. Uskunaning bolalar uchun ochiq bo'lgan har qanday burchaklari va qirralari yumaloqlangan bo'lishi kerak.

7. Bolalar o'yin jihozlari va inventarlari yangi bo'lishi, ishlatilmagan, ta'mirlanmagan bo'lishi, shu

jumladan nuqsonlari bo'lmashligi, tiklanmagan bo'lishi, iste'molchi xususiyatlari tiklanmagan bo'lishi kerak. Bolalar o'yin jihozlari funksional maqsadga muvofiq bo'lishi kerak.

2.2. Sifat kafolati

Pudratchi 36 oy muddatga bajarilgan ishlarning, shu jumladan obyektga o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifati va ishonchliligi va natijalarining kafolatini belgilaydi.

Agar uskunani ishlab chiqaruvchi tomonidan ushbu bandda ko'rsatilganidan kattaroq kafolat muddati belgilangan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan kafolat muddati qo'llaniladi.

Kafolat muddati o'tishi Buyurtmachi tomonidan bajarilgan ish dalolatnomasi tasdiqlangan paytdan boshlanadi.

Pudratchi quyidagilarni kafolatlaydi:

- o'yin uskunolari uchun texnik hujjatlarga va amaldagi normalar hamda texnik shartlarga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifati, ishni qabul qilish paytida va uskunaning kafolat muddati davomida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etish;

- kafolat muddati davomida bajarilgan ishlarning natijalaridan va o'yin jihozlaridan foydalanish imkoniyati.

Kafolat muddati amal qiladigan davrda Pudratchi Buyurtmachining da'vosi asosida o'z mablag'lari hisobidan uskunalarining kamchiliklarini va bajarilgan ishlarning natijalarini amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq Buyurtmachi tomonidan belgilangan muddatlarda bartaraf etishi shart.

Kafolat muddati o'tishi bajarilgan ishda aniqlangan kamchiliklar yoki nuqsonlar bartaraf etilgan vaqtga uzaytiriladi.

**Mobil guruhlari uchun o‘yin maydonchalarini
jihozlash ishlarining texnik tavsifi**

**“Aqlvoy” bolalar o‘yin maydonchasini tashkil etish uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ
(Bolalar maydonchasini o‘rnatish)**

1. Umumiy ma’lumotlar.

Xarid qilish obyektining nomi: “Aqlvoy” bolalar o‘yin maydonchasini tashkil qilish (bolalar o‘yin majmuasini sotib olish va o‘rnatish).

1.1. Buyurtmachi: Maktabgacha ta’lim vazirligi.

1.2. Yetkazib beruvchini aniqlash usuli: elektron tender.

Narxga Pudratchining kontrakt predmeti bo‘lgan Ishlarni bajarish bilan bog‘liq barcha xarajatlari, shu jumladan Ishlarni bajarishda foydalanilgan tovarlarning qiymati, transport xarajatlari, sug‘urta xarajatlari, soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar kiritilgan.

1.3. Ishlarni bajarish muddati: kontrakt tuzilgan kundan boshlab 90 kun.

1.4. Uskunani yetkazib berish va o‘rnatish viloyati: Qashqadaryo (6 ta), Surxondaryo (8 ta).

1.5. Bolalar uchun o‘yin maydonchalarining umumiy soni: 14

1.6. Uskunani yetkazib berish va o‘rnatish tumani: Qashqadaryo viloyati (Kitob tumani, Chiroqchi tumani va Dehqonobod tumani. Surxondaryo viloyati (Bandixon tumani, Denov tumani, Oltinsoy tumani va Qumqurg‘on tumani).

2.

Buyurtmachi:	Maktabgacha ta’lim vazirligi		
1. Bajariladigan asosiy ishlar ro‘yxati:	Bolalar o‘yin majmuasi qurilmasi		
	1	<i>O‘yin uskunalarini tayyorlash</i>	
	2	<i>O‘yin uskunalarini yetkazib berish</i>	
	3	<i>Balandligi kamida 1,8m. bo‘lgan yevrozabor o‘rnatish</i>	106 m ²
	4	<i>O‘yin uskunalarini va sun‘iy chimni o‘rnatish</i>	
	5	<i>Chodirni va himoya soyabon bilan metall karkasni o‘rnatish</i>	1 komp.
2. Ishning tarkibi va bajarilishiga qo‘yiladigan asosiy talablar:	<p><i>Barcha ishlar bolalar o‘yin majmuasining texnik pasporti talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.</i></p> <p><i>Shartnoma majburiyatlarini bajarish davrida malakali, texnik xodimlarni jalb qilgan holda ishlarning yuqori sifatini ta’minlash.</i></p> <p><i>Shuningdek, ish sifati uchun kafolatlariga rioya qilish.</i></p> <p><i>Ishning borishini sekinlashtiradigan har qanday holatlar yuzaga kelganda Pudratchi darhol Buyurtmachini xabardor qilishi shart.</i></p>		
3. Ishni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar:	<p><i>Ish quyidagilarga muvofiq amalga oshirilishi kerak:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Amaldagi SanQvaM “Maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish, saqlab turish va ish rejimini tashkil qilishga qo‘yilgan sanitariya-epidemiologik talablari”ga muvofiq (<i>САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ к содержанию, устройству и организации режима работы дошкольных образовательных учреждений в Республике Узбекистан</i>). - Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. - Yo‘riqnoma. 		
4. Ishlarni bajarish sifati kafolatlari:	<p><i>Pudratchi ishlarni bajarish jarayonida aniqlangan kamchiliklar o‘z kuchi bilan va o‘z mablag‘lari hisobidan bartaraf etilishini ta’minlashi shart.</i></p> <p><i>Kafolat muddati – to‘g‘ri ishlatish qoidalariga rioya qilgan holda ish qabul qilingan kundan boshlab 36 oy.</i></p> <p><i>Sifat kafolati barcha bajarilgan ishlar uchun, shuningdek ishni amalga oshirishda foydalaniladigan materiallar uchun o‘rnatiladi.</i></p>		

	<p>Agar kafolat muddati davomida pudratchining aybi bilan obyektning me'yorda ishlashiga xalaqit beradigan nuqsonlar aniqlansa, pudratchi ularni o'z hisobidan va Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatda bartaraf etishi shart.</p> <p>Kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi dalolatnomani tuzishda ishtirok etish, ularni bartaraf etish tartibi va shartlarini kelishib olish uchun pudratchi Buyurtmachidan yozma bildirishnoma olingan kundan boshlab 5 (besh) kundan kechiktirmay o'z vakilini yuborishi shart, aks holda dalolatnoma tuziladi. Buyurtmachi tomonidan bir tomonlama tartibda tuziladi. Bunday holda, kafolat muddati tegishli ravishda nuqsonlarni bartaraf etish muddatiga uzaytiriladi.</p>
5. Materiallarga qo'yilgan alohida talablar:	<p>Ishlarni bajarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar, buyumlar va materiallar davlat standartlari yoki texnik shartlarga mos kelishi, ularning muvofiqligi va sifatini tasdiqlovchi sertifikatlar, texnik pasportlarga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Materiallar va jihozlardan foydalanish bo'yicha barcha muqobil takliflar Buyurtmachi bilan kelishilgan bo'lishi kerak.</p>
6. Ishlarni bajarish xavfsizligiga va ish natijalari xavfsizligiga qo'yiladigan talablar:	<p>Barcha ishlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari asosida amalga oshirilishi kerak.</p> <p>Pudratchi ish jarayonida quyidagilar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ish bajariladigan hududlarda harakat xavfsizligini ta'minlash uchun; - obyektida joylashgan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va texnikaning xavfsizligini ta'minlash uchun. <p>Pudratchi mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik, atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarga rioya qilishni ta'minlashi shart. Ish yong'in xavfsizligi talablari va standartlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.</p>
7. Ishlarni amalga oshirish muddatlari	<p>Pudratchining maxsus hisobvarag'iga oldindan to'lovning 15 foizi kelib tushgan kundan va bolalar o'yin maydonchalariga loyiha asosida beton quyilib uskunalarni o'rnatishga tayyor holatga keltirilgan kundan boshlab 60 ish kuni.</p>
8. Ish natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi, shuningdek ishlar yakunlangach va topshirilgach, Buyurtmachiga texnik va boshqa hujjatlarni o'tkazish talablari:	<p>Pudratchi bajarilgan ishlarni tekshirish uchun Buyurtmachining vakilini chaqirishi shart.</p> <p>Obyektdagi barcha ishlar tugagandan so'ng bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalarni va boshqa hujjatlarni imzolash 5 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.</p>
<p>9. Barcha jihozlar SanQvaM (SanPin) standartlariga muvofiq bo'lishi shart (СанПиН № 0355-18 САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОДЕРЖАНИЮ, УСТРОЙСТВУ И ОРГАНИЗАЦИИ РЕЖИМА РАБОТЫ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН).</p>	

2.1. Ish hajmi va uskunalarning xususiyatlari

t/r	Mahsulot nomi	Mahsulot ko'rsatkichi nomi	Materialning sifatiga, texnik xususiyatlariga, xavfsizlikka qo'yiladigan talablar, materialning funksional xususiyatlariga (iste'mol xususiyatlariga) qo'yiladigan talablar, o'lchamlar va boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Tovarlar soni (dona)
1.	Yog'ochdan yasalgan qumdon	Gabarit hajmlari:	1 500 x1 500 mm	1
		Materiallar:	<p>Yog'och elementlar ekologik toza lak bilan qoplangan bo'lishi kerak. Bog'langan choklar silliq bo'lishi kerak va aloqa paytida foydalanuvchilarning shikastlanishi ehtimolini istisno qilishi kerak.</p> <p>Barcha burchaklar kamida 3 mm radius bilan yumaloq bo'lishi kerak. Faner namlikka chidamli va kamida I navli, suvga chidamliligi yuqori sayqallangan shpondan yasalgan, Ye1 emissiya sinfidagi yelim bilan yopishtirilgan bo'lishi, tabiiy yog'och nuqsonlarini oldindan bekitilgan bo'lishi kerak. Tishli birikmalar o'rnida tiqinlar plastik bo'lishi kerak. Uskunalar orasidagi bo'shliqlar va tutash joylar foydalanuvchilarning tana a'zolari va kiyimlari yopishib qolishining oldini olishi kerak.</p>	
		To'plam:	<p>Qumdon barqaror konstruksiya bo'lishi va quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - quti qumdoni 30x280 kesimli qarag'ay yog'och bo'laklaridan yasalgan bo'lishi, maydoni 2,25 m² bo'lishi kerak. Ostona kamida 30x130 mm kesimli yopishtirilgan yog'ochdan yasalgan bo'lishi kerak. 	
2.	Balansir	Gabarit hajmlari:	<p>Uzunligi kamida (mm): 2600</p> <p>Kengligi kamida (mm): 280</p>	1
		To'plami:	<p>Kachalka-balansir 4 yosh va undan katta yoshdagi bolalarning bo'sh vaqtini va barkamol rivojlanishini tashkil etish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari, bog'lar, hovlilar va ommaviy dam olish joylari hududlariga joylashtirish uchun mo'ljallangan. Barcha iqlim zonalarida butun yil davomida ishlashi mumkin.</p> <p>To'plami:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Bufer – 2 dona. Bufer o'lchamlari kamida 175*400 mm bo'lgan to'rtburchaklar bo'lishi, issiqlik-muzlash-kislota-ishqorga chidamli maxsus kauchuk plastinka kauchukdan tayyorlangan bo'lishi kerak. Bufer o'rindiq ostidagi nurga kamida uchta tishli birikma bilan biriktirilishi kerak; 	

		Material:	<p>- To'sin – 1 dona. O'lchamlari kamida 57*3 mm va uzunligi kamida 2250 mm bo'lgan metall quvurdan yasalgan bo'lishi kerak.</p> <p>To'sinning o'rtasida diametri kamida D=25 mm bo'lgan dumaloq metall quvurdan yasalgan 140 mm uzunlikdagi o'q (to'sindan o'tadi) perpendikulyar ravishda payvandlanishi kerak. O'qning uchlarida uzunligi 14,5 mm, diametri kamida 20 mm bo'lgan burtiklar mavjud bo'lib, ularga tebranish podshipniklarining ichki halqalari tayanib turadi;</p> <p>- Tutqich – 2 dona. Diametri kamida 21,3 mm va ichki diametri kamida 235 mm bo'lgan metall quvurdan yasalgan halqa;</p> <p>- Ustun – 1 dona. Uzunligi kamida 1000 mm, o'lchamlari 80*40*2 mm dan kam bo'lmagan metall profil quvuridan tayyorlangan. Qalinligi kamida 4 mm bo'lgan metall listlardan yasalgan o'lchamlari 60 * 85 mm bo'lgan plastinlar ustunlarning pastki uchlariga payvandlanishi kerak;</p> <p>- Dekoratsiya "Kot" - 2 dona. Ko'zlari, mo'ylovlari, burunlari bo'lgan mushukning yuzi shaklida yasalgan dekorativ element. Ko'zlari, Og'iz, mo'ylov, burunning dekorativ elementlari rover usuli yordamida yasalishi kerak. Dekoratsiyaning o'zi qalinligi kamida 15 mm bo'lgan fanerdan tayyorlanishi kerak;</p> <p>- O'rindiq – 2 dona. Mustahkam trapetsiyali qalinligi kamida 15mm bo'lgan fanerdan tayyorlangan, mashq qiluvchilar joylashishi uchun qulay shakl. O'rindiq va orqa o'rindiqlarning chetlari 25 mm radius bilan yumaloqlangan.</p> <p>Metall va faner detallar polimer kukunli emal bilan bo'yalishi kerak.</p> <p>Chiqib turuvchi mahkamlagichlar begona shaxslar ziyon yetkazishining oldini olish uchun dekorativ poliyetilen tiqinlar bilan, quvurlarning uchlari begona shaxslar ziyon yetkazishining oldini olish uchun elliptik tiqinlar bilan yopilishi kerak. Barcha mahkamlagichlarga rux yugurtirilgan bo'lishi kerak.</p> <p>Kompleksni o'rnatish ustunlarni yerga betonlash orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Buyum mas'ul shaxs – ekspluatant nazorati ostida bo'lgan ochiq ko'cha joylariga o'rnatiladi. O'rnatish tozalangan tekis maydonda amalga oshirilishi kerak.</p>	
3.	Shatyor	Gabarit hajmlari:	<p>Uzunligi kamida (mm): 6000</p> <p>Kengligi kamida (mm): 3000</p> <p>Balandligi kamida (mm): 3729</p>	1
		Materiallar:	Frezerlangan bukik joylar silliq bo'lishi va tekanda foydalanuvchilarga shikast yetkazmasligi kerak. Barcha mahkamlagichlar laklangan bo'lishi kerak, barcha burchaklar kamida 3 mm	

			radius bilan yumaloqlanadi. Faner namlikka chidamli va kamida I navli, suvga chidamliligi yuqori sayqallangan shpondan yasalgan, Ye1 emissiya sinfidagi yelim bilan yopishtirilgan bo'lishi, tabiiy yog'och nuqsonlarini oldindan bekitilgan bo'lishi kerak. Yog'och materiallari yuzasida ishlov berilgandan keyin nuqsonlar bo'lmasligi kerak. Uskunalar orasidagi bo'shliqlar va tutash joylar foydalanuvchilarning tana a'zolari va kiyimlari yopishib qolishining oldini olishi kerak. Konstruksiyada foydalanuvchiga chetdan yordam talab qilingan holatlarda kattalar kirishi mumkinligi nazarda tutilishi kerak.	
		To'plami:	Chodirni shiyponga moslashtirilgan uslubda bo'lishi kerak. Chodir maydondan, yon tomonida badiiy ishlangan rasmlardan va dekorativ elementlardan iborat bo'lishi kerak. Chodir to'siqlar, burchak o'rindiqlari va ostona perimetri bo'ylab ularga biriktirilgan osma yog'och ustunlardan iborat bo'lishi kerak. Yon ustunlar orasiga kremniviyl taxta qo'yilishi kerak. Kompleksning osma ustunlari kamida 80x40 mm kesimli yog'och brusdan yasalgan va yumaloq profilga ega bo'lishi kerak. Laklar kamida 80x40 mm kesimli yog'ochdan va qalinligi kamida 16 mm bo'lgan namlikka chidamli laminatlangan silliq bo'lmagan, bir-biriga yopishtirilgan fanerdan bo'lishi kerak. O'rindiqlar 30x160 o'lchamdagi yog'och bo'laklardan yasaladi. To'siqlar qirqimi 60x40 mm bo'lgan yog'och bo'laklardan va qalinligi kamida 0,5 mm bo'lgan namlikka chidamli fanerdan yasalgan bo'lishi kerak. Tomning karkasi qirqimi 80x40 mm bo'lgan yog'och bo'laklardan yasalgan va badiiy bezakli naqsh bilan qoplangan bo'lishi kerak.	
4.	Bolalar uchun o'yin majmuasi (Detskiy igrovoy kompleks)	Gabarit hajmlari:	Uzunligi kamida (mm): 3215 Kengligi kamida (mm): 2900 To'siqning balandligi kamida (mm): 2570 Minoralar maydoni balandligi 950 mm va 650 mm	1
		Materiallar:	Metall elementlar kukun bilan qoplangan bo'lishi kerak. Payvandlash choklari silliq bo'lishi va tekkanda foydalanuvchilarga shikast yetkazmasligi kerak. Barcha burchaklar kamida 3 mm radius bilan yumaloqlangan bo'lishi kerak. Quvurlarning uchlari yopiq bo'lishi kerak. Yog'och bo'lak osma konstruksiyalar mahkam bo'lishi uchun maxsus ishlov berilgan va mebel namligining 7-10 foizigacha quritilgan bir nechta saralangan qarag'ay taxtalaridan press ostida yopishtirilishi kerak. Ignabargli yog'och taxtalar konstruksiyalar mahkam bo'lishi uchun maxsus ishlov berilgan va mebel namligining 7-10 foizigacha quritilgan bir nechta saralangan qarag'ay taxtalaridan press ostida yopishtirilishi kerak. Faner namlikka chidamli va kamida I navli, suvga chidamliligi yuqori sayqallangan shpondan yasalgan, Ye1 emissiya sinfidagi yelim	

		<p>bilan yopishtirilgan bo'lishi, tabiiy yog'och nuqsonlarini oldindan bekitilgan bo'lishi kerak. Yog'och materiallari yuzasida ishlov berishdan qolgan nuqsonlar bo'lmasligi kerak. Quvurlarning uchlari yopiq bo'lishi kerak. Tishli birikmalar o'rnida tiqinlar plastik bo'lishi kerak. Uskunalar elementlari orasidagi bo'shliqlar va tutash joylar foydalanuvchilarning tana a'zolari va kiyimlari yopishib qolishining oldini olishi kerak. Konstruksiyada foydalanuvchiga chetdan yordam talab qilingan holatlarda kattalar kirishi mumkinligi nazarda tutilishi kerak. Mahsulotlarning sifati va xavfsizligini oshirish maqsadida buyum hujjatlariga (rasm, o'lchamlar va boshqalar) o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.</p>	
	<p>To'plami:</p>	<p>Bolalar o'yin majmuasi 2 ta minoradan iborat bo'lgan modulli yig'iladigan konstruksiya bo'lishi kerak, ulardan biri tomga ega bo'ladi, egilgan ko'prik bilan bog'lanadi. Tomga ega bo'lgan, maydoni balandligi kamida 950 mm bo'lgan 1-minora gorka va fanerli panjara bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Maydonining balandligi kamida 650 mm bo'lgan 2-minorada fanerli panjara, zinapoya, bukilgan liana quriladi. Kompleksning osma ustunlari qirqimi kamida 80x80 mm bo'lgan yopishtirilgan yog'ochdan yasalgan bo'lishi va o'rtada ariqchali yumaloq profilga ega bo'lishi kerak. Minoralarning poli qalinligi kamida 40 mm bo'lgan yog'och taxtadan yasalgan bo'lishi kerak. Minora tomi kamida 15 mm qalinlikdagi namlikka chidamli fanerdan yasalgan 2 ta skatdan va 2 ta frontdan iborat bo'lishi kerak. Minora to'siqlari qalinligi kamida 15 mm bo'lgan namlikka chidamli fanerdan yasalgan bo'lishi kerak. Gorka skat, bortiklar, himoya bo'limi va himoya turnigidan iborat bo'lishi kerak. Gorka balandligi kamida 950 mm bo'lgan boshlang'ich uchastka, toymaydigan uchastka va oxirgi uchastka bo'lishi kerak. Skat qalinligi 1,2 mm bo'lgan zanglamaydigan po'latdan yasalgan bitta listdan yasalgan bo'lishi kerak. Qalinligi kamida 18 mm bo'lgan namlikka chidamli fanerdan yasalgan gorkaning yon tomonlari balandligi kamida 100 mm bo'lishi kerak. Xavfsizlik turnigi diametri kamida 33 mm bo'lgan, bolani o'tirishga undaydigan metall quvurdan yasalgan bo'lishi va gorka boshlang'ich uchastkasining yuzasi sathidan kamida 600 mm balandlikda o'rnatilgan bo'lishi kerak. Gorkaning himoya bo'limi qalinligi kamida 18 mm bo'lgan namlikka chidamli fanerdan yasalgan bo'lishi kerak. Balandligi kamida 650 mm bo'lgan zinapoya 40 mm qalinlikdagi taxtadan yasalgan dekorativ elementlarga ega kamida 40 mm qalinlikdagi yog'och taxtadan yasalgan tutqich bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Birinchi poyadan boshlab panjara o'rnatilishi kerak.</p>	

